

YANGIQO'RG'ON

MEHMON
UYLARI



DURADGORLIK



XAMIR SOLDI
TAOMI



ETNOTRAVEL



AL-7823051605 "Rishton, Rishton, Yangiqo'rg'on va Boysun tumanlari
etnoturizm salohiyatini oshirishda lokal atributlardan foydalanish"
amaliy loyihasi



Tuman to'g'risida qisqacha. Yangiqo'rg'on tumani – 1926-yil 29 sentyabrda tashkil topgan. Yangiqo'rg'on tumani Namangan viloyatining shimoliy qismiga joylashgan bo'lib, shimoliy – g'arb, shimol, shimoliy – sharq, tomonlardan Qirg'iziston Respublikasi bilan, janubiy – sharq va janubiy – g'arbdan Namangan tumani bilan, g'arb tomondan Kosonsoy tumani chegaradoshdir. Yangiqo'rg'on tumani faqatgina Namangan viloyatining emas, balki



Farg'ona vodiysining eng go'zal, so'lim maskanlaridan biridir. Yangiqo'rg'on tumanining markazi Yangiqo'rg'on shaharchasi viloyat markazidan 22 km uzoqlikda joylashgan. Umumiy yer maydoni 540 kvadrat kilometrdan iborat. Markazi Yangiqo'rg'on shaharchasi.

Tabiati. Yangiqo'rg'on tumanining geografik o'rni Tyan Shan tog'larining Chotqol tog' tizmasini Janubiy etaklarida joylashganligi uchun ham er yuzasi tekislik va adirliklardan iborat. Dengiz satxidan balandligi Janubdan Shimolga 400 metrdan boshlanib, Shimolda 2100 metrqa qadar ko'tariladi.